

## O'tkir Hoshimovning "Urushning So'nggi Qurboni" Hikoyasidagi Va "Dunyoning Ishlari" Asarlarida "Ona" Obrazi Talqini

*Lutfullayeva Munisaxon Baxodirovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbek xalqining zabardast yozuvchisi O'tkir Hoshimov tomonidan yozilgan "Urushning so'nggi qurboni" asaridagi "Ona" obrazining o'ziga xos xususiyatlari va urush paytida insonlar qanchalar og'ir kunlarni boshidan kechirganini yoritib beradi. Shu bilan birgalikda, "Dunyoning ishlari" asaridagi "Ona" va "Ayol kabi obrazlarni tasniflab beradi.

**Kalit so'zlar:** Ona, urush davrlari, insonlar, farzand, dunyo.

O'zbek xalqining atoqli yozuvchisi O'tkir Hoshimovning ijodini "Ona" obrazisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U asarlarida onalarni hayotlik paytida qadrlashga va hurmat qilishga chorlaydi. Darhaqiqat, onani e'zozlash har bir insonning burchidir, chunki bizni dunyoga keltirib, o'stirgan inson bu bizning volidimizdir.

"Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida "Ona" obrazi juda yaxshi ochib berilgan, Masalan, onaning ma'suliyati, ayniqsa, farzandlar orasida naqadar katta ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Umri xola ikki o'g'lidan ham bexabar qolmay deb ikkala hovlidan ham har kuni xabar oladi.

- Ovqatingdan qoldimi? dedi u cho'kkalab o'tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab. Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so'radi.
- Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg'on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deytgandir...

Mana shu parchada biz ikki narsani payqashimiz mumkin, birinchisi: Xadichaning qurumsoqligini, ikkinchisi: urush paytida odamlar hatto bir kosa ovqatga zorligini. Biz hikoyani o'qiganimiz sari go'yo shu davrda yashayotgandek his qilamiz. Umri xola Shone'matni tuzalib ketsin deb qo'lidan kelgan hamma narsani qiladi.

- Zahar ichsam bo'lmasmidi, -dedi Shone'mat yana o'sha ohangda. Aftidan u yig'lay olmas, yig'lashga madori yetmasdi. -Kechayam aytuvdim, ko'nmadilar. Qulupnayga sut alishadi dedilar.

Demak, ko'rinib turibiki Umri xolani Shone'mat ko'ndirmoqchi bo'lsa ham Umri xola baribir farzandini o'ylab shunday qilishga ya'ni Shoikromning hovlisidan qulupnay terishga majbur bo'lgan. Lekin Shoikrom u inson onasi ekanligi haqida yetti uxlab tushiga kirmagan va oxir-oqibat o'g'rini o'ldiraman deb o'z onasini vafot etishiga sababchi bo'lgan. Bu asarda urush davri mukammal ochib berilgan, chunki odamlar yegulik topaman deb hatto o'g'rilikka ham qo'l urishgan, masalan, Shoikromning sigiri yo'qolganligi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Adib qisqa asarida juda ham katta ma'nolarni ilgari surgan. Masalanr, Ona mehri, urushning qiyin payti va insonlarning bir-biriga bo'lgan qarama-qarshiliklari.

Ona-bu bizga Alloh tomonidan biz uchun berilgan cheksiz mehr sohibasidir. Onani sevish, e'zozlash, aytgan narsasini bajo keltirish har bir musulmonning farzidir.

Dunyodagi har bir mahluqot o'z bolasiga mehrini beminnat beradi, hattoki, vahshiy hayvonlar ham.

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillari instituti



O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida biz "Ona" obrazini ya'ni Ona o'zi kim ekanligini uning mehrini uning farzandiga bo'lgan his-tuyg'ularini to'liq tushinib yetishimiz mumkin. Uning bu asarida onani nega ardoqlashimiz kerakligi g'oyasi olgari surilgan.

"Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan. Ona-ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas" (Tasalli)

Haqiqatdan ham onaning katta-kichigi bo'lmaydi u biz uchun doimo ona, inson onasini yoshiga yoki tashqi-ko'rinishiga qarab emas, uning onaligi uchun qadrlashi kerak, ya'ni u o'ttiz yosh bo'ladimi yoki ellik yosh bo'ladimi, u baribir biz uchun ulug' insondir

➤ Vali, ma, non!

Hamimiz o'sha tomonga qaradik, Valining sariq yuzi olovdek yonib ketdi. Nima deyishini bilmay nuqul "keting", deb imlaydi. Zebi xola bo'lsa derazadan ikkita arpa non uzatib turibdi.

➤ Olsang-chi, qo'lim kuyib ketdi! -dedi u zarda bilan.

Sinxonani birpasda issiq non hidi tutib ketdi.

Risolat opamiz bir zum esankirab turdi-da, tashqariga yugurdi.

➤ Nima qilyapsiz, xola? -dedi yig'lagudek bo'lib. -Maktab-ku bu!

➤ Maktabligini o'zim ham bilaman! Machitga kelganim yo'q!

➤ Zebi xola ovozini baralla qo'yib do'rilladi. -Bolam ertalab choy ichmasdan chiqib ketuvdi. Och o'tirsinmi endi?

Risolat opamiz yalinishga tushdi

➤ Jon xola, komissiya bor

➤ Nima kamissiyang non yemaydimi! Bolam bir kun kech olim bo'lsa bo'lar. "Kamissiya keldi", deb tishining kirini so'rib o'tirsinmi endi?

Bu parchada Zebi xola orqali onalarning farzandi uchun jonkuyarligi, bolasi och qolsa, onaning ko'ngli tinchimasligi ifodalangan

➤ Nima, meni bolam malaymi senga?! -dedi dag'dag'a bilan.

➤ Sening molingni boqsin, deb katta qilib qo'yibmanmi bolani?! (O'ris bolaning oyisi)

Bu parchada biz Zebi xolaning farzandini shunchalar yaxshi ko'rishini, shuningdek onalarimiz bizning himoyachilarimiz ekanligini tushunib yetishimiz mumkin.

Ba'zida dunyoning ishlari bilan bo'lib onamizni unutib qo'yamiz... Afsuski hozirgi kunda ota-onasini behurmat qiluvchi insonlar ham uchrab turadi. Ular onasidan ko'proq ko'chadagi ya'ni hayotiga shunchaki kelib-ketuvchi insonlarni afzal ko'radi. Bunga esa oldingdan o'tgan suvni qadri yo'q degan maqolni keltirsak mubolag'a bo'lmaydi...

Oradan ikki hafta o'tdiyu... Kechalari uyg'onib ketaman, o'ylayman. O'ylayman:sen nomard, sen ahmoq nimaga, nimaga o'shanda kuldung? Suratga tushishga vaqting yo'qmidi? Kerak bo'lsa topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida, bog'da, ko'chada... Nima, sen kinoyulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana, bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo'q (Surat)

Bu yerda biz onasi bilan suratga tushishdan bosh tortgan o'g'ilning pushaymonlik holatini ko'rishimiz mumkin. U onasi rasimga tushaylik deganda, shunchaki onasining gapini hazilga olgan edi va kulib yuborgan edi. Ona undan katta narsa talab qilmagan edi. Ona nima desa ham farzand uni muhayyo qilishi kerak, so'nggi pushaymonlik o'zimizga dushmandir.

Dunyoda birgina hech qachon xiyonat qilmaydigan vafodor inson bor, r u kim?



U bizning mo'tabar onamizdir...

"Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Har kim har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotganibshindandir".(Xiyonat)

Adib bu hikoyasida eng yaqin insonlarning xiyonati qilishi mumkinligi haqida yozgan, lekin, ona hech qachon xiyonat qilmasligi va har qanday holatda ham ona farzandining yonida turishini isbotlagan.

O'tkir Hoshimovning shu kabi novellarida biz bevosita ona bu o'zi kim ekanligini his qilishimiz mumkin.

Onam ma'yus jilmaydi:

➤ Uyqu qatta, bolam? O'-o'tiribman.

Ertasiga redaktsiyada navbatchilik cho'zilib ketdi. Qarasam, yana onamning chirog'i yoniq.

➤ Nega uhlamagingiz?

Onam ma'yus jilmaydi:

➤ Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo'lib qolganman. Men nodon, onamning kamuyqu bo'lib qolganiga, yarim kechagacha yuramanmi, tongotar qaytamanmi, onamning chirog'i muttasil lippilab turishga xo'p ko'nikkan ekanman. (Tush)

Haqiqatdan ham, hamma kechasi uxlasa ham birgina ona farzandi haqida xavotir oladi... Uxlamaydi, qachon kelsa ham kutib o'tiradi, kelmaguncha xotirjam bo'lmaydi Ona... Qanday bebaxo inson bo'ldiki? Kechalari uyqisini kutishga almasha..

Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazillashib: "Meniyam kitob qilib yozsang-chi, "o'g'lim", degandingiz. Men: "Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?" degan edim. Xafa bo'lmang, men hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman... (Iltijo)

Onalarni borida qadriga yetish kerak! O'tkir Hoshimov bu jumlasini orqali uning o'z onasiga bo'lgan sevgisi cheksiz ekanligini va hamma onalar yaxshi ekanligini ifodalagan.

➤ Sarpoychan kelaveringizmi?! -dedi Hoji buva hamon o'sha vahimali ohangda. -Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz. Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi, Ikkala oyo'g'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi.

➤ Sovuq yegani yo'q, -dedi sekin. -Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan.

Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi.

➤ Sezyapsizmi?

➤ Nimani? -dedi oyog'iga emas, menga qarab.

➤ Qo'limni sezgapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqqilab yig'lab yubordi.(Gilam paypoq)

Bu hikoyada bolasini tabibga olib boraman deb, sovuq qishda oyog'idan qor o'tib ketgan ona obrazini ko'rishimiz mumkin. Onalar farzandi uchun jonini berishga ham tayyor.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot 6-sinf darsligi S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh. Rizayev
2. "Dunyoning ishlari"/qissa/ "Adabiy barhayot asarlar" turkumi. N.Lolaxon Qo'ziboyeva, Ergashboy Matyoqubov



3. M.B.Fayzullayeva “O’TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA “ONA” VA “AYOL” OBRAZLARI TALQINI”  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=9NS0PMkAAAAJ&citation\\_for\\_view=9NS0PMkAAAAJ:5nxA0vEk-isC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9NS0PMkAAAAJ&citation_for_view=9NS0PMkAAAAJ:5nxA0vEk-isC)
4. M.B.Fayzullayeva “BADIY ADABIYOTDA ONA OBRAZINING YARATILISH TARIXI”  
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=15672995581050554416&btnI=1&hl=ru>

